

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIK
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

**PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA O'QITISH METODIKASI
KAFEDRASI**

Kasb ta'limi (Zootexniya) yo'nalishi 2- kurs talabasi

Axrolova Gulshanning
«Kasbiy pedagogika» fanidan

KURS ISHI

MAVZU: Shaxs shakllanishida muhitning o'rni

Ilmiy rahbar: Boboqulov Z

Samarqand - 2013

MUNDARIJA	
KIRISH:.....	3
I. SHAXSNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONI	5
1.1. Shaxs tushunchasi. Shaxs - tarbiyaning ob’ekti va sub’ekti.....	5
1.2 . Shaxs shakllanishi va rivojlanishi to'g'risida tushuncha.....	12
II. SHAXS RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR	14
2.1. Shaxs kamolotida irsiyatning ta'siri.....	14
2.2. Shaxs rivojlanishida muhitning o’rni.....	17
2.3. Shaxs rivojlanishida ta’lim-tarbiyaning ta’siri.....	21
Xulosa.....	26
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	28

.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Jamiyat bilan shaxsning munosabatlari, erkinligi uning xuquqi va burchlari, insoniy qadiryatlari xaqidagi muammolar barcha tarixiy davrda xam buyuk mutaffakirlarining etiborda turgan eng muhim masalalaridan bo'lib hisoblangan.

Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ajralmas xuquqi o'z taqdirini o'zi belgilash xuquqi ruyopga chiqarildi. Prezident I.A.Karimov aytganidek "Respublika xaqiqatdan ham, uning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, xalqning azaliy turmush tarzi an'analari, urf odatlari va kunikmalarini, beqiyos tabiiy boyliklarini xar tomonlama xisobga olish yuksaltirish amalda mumkin bo'lib qoldi".(Uzbekiston buyuk kelajak sari 9-bet I.A.Karimov)

Har tamonlama rivojlangan, barkamol shaxs fuqoroni shakllantirish g'oyasi Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqildi va asoslab berildi. Prezidentimiz asarlarida "Kadrlar tayorlash milliy dasturida olga surgan" shaxs to'g'risida konsepsiya (g'oyalar) milliy mustaqilligimiz sharoitida shaxsning mohiyati rivojlanishi, tarbiyasi, tarkib topishini istiqlool g'oyalari asosida izohlash taxlil etishga imkoniyat yaratdi.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarining «Milliy mafkuramiz xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin» nomli «Tafakkur» jurnalining (2- son, 1998 y) bosh muharriri bilan bo'lgan muloqotida, 2000 yil iyun oyida «Fidokor» gazetasining muxbiri bilan «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman» nomli muloqotlarida insonni ma'naviy – amaliy shakllanishida hayotiy jarayonning hamma jabhalari mohiyatli ekanligini asoslab berdi.

Prezidentimiz «Sog'lom avlod yili» ni e'lon qilar ekan: «Sog'lom avlod deganda shaxsan men, eng avvalo sog'lom naslni nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhi, fikri sog'lom, iymon – e'tiqodi butun bilim, ma'naviyati yuksak mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman», deb ta'kidlaydi.

Sog'lom avlod tarbiyasi oson ish emas, u har bir inson, har bir oila, butun jamiyatdan jiddiy e'tibor va uzluksiz mehnat talab qiladi. Prezidentimiz fikrlarini

davom ettirar ekanlar: «...hech shubha yo‘q, sog‘lom avlod orzusi ajdodlarimizdan bizga o‘tib kelayotgan, qon – qonimizga singib ketgan muqaddas intilishdir. Agar ota – bobolarimizning turmush tarziga, tafakkuriga nazar solsak, ular nasl – nasab, etti pushtining tozaligiga, avlodning sog‘ligiga juda katta e‘tibor berganini ko‘ramiz. Sog‘lom bolaning tug‘ilishi, eng avvalo, onaning sog‘lig‘iga bog‘liq», deb ta‘kidlaydi yurtboshimiz.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, shaxs ijtimoiy hayotning mahsuli ekan, u albatta bolani o‘rab olgan muhit ta‘sirida rivojlanadi. Shaxsning hayoti faoliyati davomida muhit unga yo ijobiy, yo salbiy ta‘sir ko‘rsatishi, rivojlanish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi yoki yo‘q qilishi mumkin.

Mavzuning maqsad va vazifalari: Insonning shaxs sifatida shakllanish jarayoni, unga ta‘sir etuvchi omillar, shaxsni shakllantirish jarayonida muhitning o‘rni haqida ma‘lumotlarni o‘rganish.

- Shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni
- Shaxs tushunchasini tahlil qilish;
- Shaxs shakllanishi va rivojlanishi to'g'risida tushuncha;
- Shaxs kamolotida irsiyatning ta'siri;
- Shaxs rivojlanishida muhitning o‘rni;
- shaxs rivojlanishida ta‘lim-tarbiyaning ta‘sirini adabiyotlardan tahlil qilishdan iborat.

Kurs ishining tuzilishi va hajmi. Kurs ishi kirish, ikki bob, 5 paragraf, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I. SHAXSNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONI

1.1.Shaxs tushunchasi. Shaxs - tarbiyaning ob'ekti va sub'ekti

Shaxs deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Odam shaxs bo'lishi uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan farq qilishi lozim. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri qiziqishi va qobiliyati aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji, mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi. Bular shaxsni o'ziga xos xususiyati bo'lib, ana shu ruhiy xususiyatlari rivojlanib ma'lum bir bosqichga yetsagina u mukammal kamol topgan inson deyiladi. Shaxsning ijtimoiy voqe'likka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati turlicha, uning faollik darajasi va odoq-axloq borasida yetukligi ham turlicha.

Shaxs nomini olish uchun nimalar darkor?

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxs nomini olish uchun unga ijtimoiy-iqtisodiy hayot va tarbiya kerak. Shu sababli pedagogika fani bolaning shaxs sifatida rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga etish qonuniyatlarini, unga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni, rivojlanish jarayoniga aloqador davrlarini aniqlash kerak. Shunga asosan pedagogika fani shaxsning rivojlanishda va ta'lim, o'qitish, tarbiya hamda bola faolligi, o'z-o'zini tarbiyalash bosqichlarini aniqlash lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning I chaqiriq I sessiyasida qilgan ma'ruzasida hur O'zbekistonda demokratik tuzumni barpo etishda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlarni asosiy ishtirokchilari bo'lgan jamiyatimiz a'zolarining ma'naviyatini butunlay yangicha qaror toptirish lozimligini ta'kidlagan edi.

Chunki ta'lim tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini xam belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkuri o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Shaxs tarbiyaning ob'ekti va sub'ekti hisoblanadi. Shaxsning kamol topishida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi bir xil bo'lmaydi. Shaxsning rivojlanish holatini to'g'ri baholash va bilish uchun uni turli munosabatlar doirasiga qo'yib tuzatish lozim. Pedagogika shaxsning kamoliga etishishning murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxs qaysi o'quvchilarda o'z-o'zini tarbiyalashda ya'ni o'z ustida ongli batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina, tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa buladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotida shaxsni tarbiyalash muammosi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

"Individ" nima? Bola ma'lum yoshga qadar "individ" sanaladi. Individ (lotincha "individuum" so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi, tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan etarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish,

intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yoʻnalishi boʻyicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak boʻladi. Ana shular taʼsirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning oʻzi nima?

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual oʻsishida namoyon boʻladigan miqdor va sifat oʻzgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga oʻtish, yangilanish, yangining paydo boʻlishi, eskining yoʻqolib borishi, miqdor oʻzgarishining sifat oʻzgarishiga oʻtishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbai qarama-qarashliklarni oʻrtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy taʼlimotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda taʼsir etadi, ularni bir-biridan ajratib boʻlmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga uning yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham taʼsir etadi.

Inson butun umri davomida oʻzgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq boʻlsa, u jamiyat aʼzosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida oʻziga munosib oʻrin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya taʼsiri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini toʻgʻri koʻrish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini toʻgʻri hal etish uchun uning xulqiga taʼsir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar etakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar etakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishida naslning rolga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazardan asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq, deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga tayaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga etadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi.

Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud.

Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya'ni:

Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga etadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxs rivojlanishida faoliyatning o'рни. SHaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Faoliyat o'zi nima? Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.

O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqish asosida tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir.

Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilishi, o'zini

shaxs sifatida ko'rsata olishi, unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi.

Ta'lim jarayonida faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatning ham turlarini kengaytiradi. SHunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida bir xil talab shaxs rivojlanishida har doim ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axloqiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymaganligidadir.

Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik hislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir. Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish

qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o'quvchilari bilan 10-sinf o'quvchisini tenglashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1.2. Shaxs shakllanishi va rivojlanishi to'g'risida tushuncha

Inson, odam, shaxs ko'plab fanlarning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Shaxs deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi, ongi yuksak taraqqiy etgan, ijtimoiy taraqqiyotda ishtirok etuvchi odamgina shaxs deyiladi. Shaxsning eng asosiy belgisi-uning ongli faoliyat egasi ekanligidir. Ma'lumki kishi ongi faqat jamiyatda, boshqalar bilan o'zaro munosabatda til yordamida ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda shakllanadi. Binobarin shaxs ham faqat jamiyatdagina shaxsga aylanishi mumkin.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxs nomini olishi uchun unga ijtimoiy-iqtisodiy hayot va tarbiya kerak. Shu boisdan pedagogika fani bolaning shaxs sifatida rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga etish qonuniyatlarini, unga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni, rivojlanish jarayoniga aloqador davrlarni aniqlashi kerak. Odamning mukammal inson bo'lib etishuvida o'zining maqsad asosidagi xatti-harakati, iroda sifatlarining kamol topishi natijasida ayrim nuqsonlarini bartaraf etishi, qiyinchiliklarni engib chiqishi mumkinligini bilishimiz zarur. Demak, inson hayot faoliyati davomida o'zgarib, shakllanib, rivojlanib boradi. Bolalik, o'smirlilik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi.

Shaxsning kamol topishida va uning xulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha ham bir xil bo'lavermaydi. Chunki uning xulqiga, munosabatlariga, aloqalariga, yoshi, bilimi, odatlari, tajribasi va vaziyat ham ta'sir etadi. Masalan, bir xildagi ta'sirlarga turli bola turlicha munosabatda bo'ladi, bu ayni paytda, bolaning ehtiyoji qandayligiga ham bog'liqdir. Shaxs ijtimoiy tajribani faol ravishda tahlil qiladi, o'zlashtiradi, o'zi uchun o'zgartiradi-bu jarayon davomida o'zi xam shaxs sifatida shakllanadi. Shaxs shakllanib borgan sayin tashqi ta'sirlar, shu jumladan ijtimoiy ta'sirlar ham uning ichki dunyosi, psixologiyasiga qarab turli odamlarga turlicha ta'sir qiladilar. Masalan, bir xil baho turli o'quvchilarga turlicha ta'sir qiladi.

Odam atrofni, ob'ektiv borliqni ko'proq bilgani sari onglilik darajasi o'sadi, fikrlash doirasi kengayadi, yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydi, yangi qiziqish va ehtiyojlar vujudga keladi. Demak, shaxsning kamolga etishi jamiyat rivojiga chambarchas bog'liqdir.

II. SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

2.1. Shaxs kamolotida irsiyatning ta'siri

Pedagogika shaxsning kamolotga yetishini murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxsning shaklanishi, kamolga etishida nasl-irsiyat (biologik), ijtimoiy muhit ham maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya va nihoyat o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega.



1- rasm

Shaxs qaysi jamiyatda yashasa o'sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asosan kamol topadi. Shu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligidan bahramand bo'ladi. Moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishda ishtirok etadi. Agar shu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligi yuksak bo'lsa, u shaxsga shu qadar katta ta'sir ko'rsatadi va aksincha. Ikkinchi tomondan esa, shaxs faoliyati davomida

mehnat orqali o'z moddiy va ma'naviy boyligini yaratish jarayonida ongini, hayotini, turmush sharoitini ham yaxshilab boradi.

Shaxs hayot davomida murakkab rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi, natijada u shaxsga aylanadi. Shu sababli shaxsni ma'lum ijtimoiy tuzumning mahsuli deb tushunishimiz lozim. Shaxs rivojlanish jarayoni bir tekisda bormaydi, rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarning ta'siri turlicha bo'ladi, ya'ni kishi ijobiy va salbiy ta'sirlar natijasida kamolga etadi. Albatta ijtimoiy omillar inson shaxsining har tomonlama shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Xususan, pedagog-tarbiyachilar bolaning muayyan rivojlanish davridagi xususiyatlari, xarakteri va fe'l-atvorini belgilovchi omillarning hammasi birgalikda ta'sir ko'rsatishini bilishi lozim.

Shaxsning, ayniqsa bolaning rivojlanishi va shakllanishi biologik omil (irsiyat) ga bog'liqdir. Irsiyat deganda, bolaga ota-on va umuman yaqin ajdodlardan, ya'ni nasldan-naslga o'tadigan biologik xususiyat va o'xshashliklar tushuniladi. Odam shaxsining va xulqining rivojlanishida biologik omillarning ta'sirini yuksak baholab, shaxsni naslga bog'lab o'rganuvchi oqimlardan biri bixeviorizm bo'lib, u XX asrning boshlarida psixologiya fanida keng tarqaldi. Bunga amerikalik pedagog va ruhshunos E. Torndayk asos soldi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, jumladan ong va aqliy qobiliyat ham nasldan-naslga o'tadi, guyo odamning ko'zi, tishlari va barmoqlari kabi aqliy qobiliyat ham tabiatan berilgandir.

G'arb pedagog olimlaridan yana biri, nemis ruhshunosi V.Ptern yangi tug'ilgan bola hali inson emas, deb hisoblaydi. U faqat sut emizuvchi hayvondir. Yarim yoshdan oshgandan so'ng u maymunga tenglashadi. Ikki yoshida bola boshlang'ich insonlik holatiga etadi (yuradi, gapiradi). Besh yoshgacha bo'lgan bolalarning ruhiy hususiyatlari ibtidoiy davr odamlari xususiyatlariga mos keladi. o'smirlik yillarida kishi o'zida o'rta asr ongini aks ettiradi va etuklik yoshidagina mavjud jamiyatning madaniy darajasiga mos ong egasi bo'ladi, deydi. Ya'ni, inson 17-18 yoshida mavjud jamiyatning ya'zosi bo'ladi deb hisoblaydi.

Avstriyalik ruhshunos K.Byuller hatto bolaning axloqiy jihatdan o'sishini ham irsiyatga bog'laydi. Bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlab o'zini o'rab olgan muhitning ta'siri ostida o'sadi, ulg'ayadi. Ayrim pedagog va ruhshunoslar orasida bolaga boshqacha qarash ham mavjud. Ularning fikricha, insonning kamoloti ikki omilga-irsiyat va ijtimoiy muhitga bog'liqdir. Irsiyat o'zgarmaydi, ijtimoiy muhit ham hamma davrlar uchun o'zgarmasdir. Irsiyat bor va biologik omillarni inkor etolmaymiz. Lekin irsiyatni mutlaqo o'zgarmas deb ham tushunmaslik kerak. Demak, bola shaxsining rivojlanishiga irsiyatning ta'siri deganda ota-onaga, avlod-ajdodlarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilar va fiziologik xususiyatlarning takrorlanishini tushunmoq kerak.

Inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror-bir qobiliyatning ruyobga chiqishi va rivojlanish manbai - layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'z holicha emas, balki uning rivojlanishi uchun qulay muhit ta'sirida zarur. Muhit deganda kishiga ta'sir etadigan tashqi voqealarning yig'indisini tushunamiz. Bunga tabiiy muhit (geografik), ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalar kiradi va ular bolalarning rivojlanishiga alohida ta'sir ko'rsatadi.

Agar bola o'z tug'ma layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo'lmasa, yo'q bo'lib ketishi ham mumkin. Kishilarning o'zaro muloqotlari natijasida bolada nutq paydo bo'ladi, shakllanadi. Boladagi irsiy belgilarning o'sishi, kamol topishi insonlar muhiti, yashash sharoiti va tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Inson bolasi, agar ijtimoiy-insoniy muhitga emas, boshqa muhit, aytaylik hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanar, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakat bo'lmaydi. Demak, inson biologik mavjudot sifatidagina emas, balki ijtimoiy mavjudot sifatida ham taraqqiy etadi.

Odob, axloq, xulqiy sifatlar - shaxsning barcha ruhiy sifatleri faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Shuning uchun irsiyat rivojlanishga ta'sir etadi, ammo hal qiluvchi omil bo'la olmaydi.

2.2. Shaxs rivojlanishida muhitning o'рни

Fiziologiya va ruhshunoslik fanining ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror - bir qobiliyatning ruyobga chiqishi va rivojlanishi manbai - layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'zicha rivojlana olmaydi, rivojlanishi uchun qulay muhit kerak.

Muhit deganda kishiga ta'sir etadigan tashqi voqealarning yig'indisini tushunamiz.

Sa'diyning fikricha qobiliyatli va kam qobiliyatli bolalar bo'ladi. Ammo qobiliyat o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo'lmasa, boladagi bor qobiliyat ham yo'qoladi. Uning kamol topishi uchun kamolatga asos bo'ladigan qobiliyat negiz bo'lishi kerak. Sa'diy o'z fikrini isboti uchun "Guliston" asarida "Bir vazirning takasaltang o'g'li bor edi. Vazir o'g'lini bir donishmand huzuriga eltib: "Shuni tarbiya qil, shoyad aqli kirib, odam bo'lsa" - deydi. Donishmand vazirzodani uzoq muddat tarbiya qildi, foydasi bo'lmadi. Bolaning otasiga bir odam orqali: "O'g'ling odam bo'lmadi, meni ham aqldan ozdirdi" - deb xabar qildi. U bu voqeadan shunday xulosa chiqaradi:"

Qobiliyat bo'lsa aslida,

Tarbiya unga qiladi asar.

Qancha urinsa bo'lmas sayqali,

Temir aslida bo'lmas gavhari (143 bet)

"Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik - zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya hayfdir. Tarbiyangni ayab unisini nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoe ketkazma", - deb ta'kidlagan A.Navoiy. Bundan tarbiyaning natijasi odamni qobiyatlilik darajasiga bevosita bog'liqligi asoslanayapti. Masalan, qobiliyati bo'lmagan insonni aqli mehnat qilishga yo'llash ijobiy natija bermasligini ta'kidlash kerak. YOki biror kasblarni egallashga ham bu g'oyani tadbiq etish mumkin.

Bunga tabiiy muhit (geografik), ijtimoiy muhit, oila muhiti (mikromuhit) va boshqalar kiradi va ular bolaning rivojlanishiga alohida ta'sir ko'rsatadi.

Agar bola o'z tug'ma layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo'lmasa, yo'q bo'lishi yoki "mudroq" ligicha qolib ketishi mumkin.

Demak, boladagi irsiy belgilarning o'sishi, kamol topishi insonlar muhiti, yashash sharoiti va tarbiyaga bog'liq desak bo'ladi. Bunga tarixda misollar juda ko'p. A.Navoiy onasidan-shoir, Eynshateyn-fizik, Ulug'bek-astronom, Ibn Sino-tabib bo'lib tug'ilmagan albatta.

Inson bolasi, agar ijtimoiy muhitga emas, boshqa muhit, aytaylik hayvonlar muhitiga tushib qolsa, odamlarga xos sifatlar shakllanmasligi mumkin.

Masalan: 1920 yili hindistonlik doktor Sing Kalkuttaning janubiy-Qarbidagi Midnapur shahri yaqinida bo'ri uyasidan ikkita bo'ri bolasi bilan ikkita qizchani topib olgan. Ularning biri 7-8 yoshda, ikkinchisi 2 yoshlar chamasida edi.

Amala (kichigi) bir yildan so'ng vafot etdi. Kamola esa 1930 yilgacha yashadi.

Odob, axloq, xulqiy sifatlar- shaxsning barcha ruhiy sifatлари faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Shuning uchun irsiyat rivojlanishga ta'sir etadi, ammo hal qiluvchi omil bo'la olmaydi.

Abdulla Avloniyning fikricha, "Axloq – bu xulqlar majmuidir. Xulq esa kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug'ilishida yomon bo'lib tug'ilmaydilar, ularni muayyan sharoit yomon qiladi."¹ Buyuk muallimning ta'kidlashicha, axloq tarbiyasi xususiy ish emas, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Ijtimoiy pedagogikada bolaning mikromuhit orqali jamiyatga kirib borishi ko'rib chiqiladi. Mikromuhitda insonning hayoti va munosabatlari o'zaro ta'sir xususiyatiga ega. Muhit – bu nafaqat ko'cha, uy va buyumlar. Muhit – bu o'ziga xos munosabat va qoidalar tizimiga ega bo'lgan turli xil insonlar birligi. SHuning uchun, bir tomondan inson unga (muhitga) nimadir shaxsan o'zinikini olib kiradi,

¹ Абдулла Авлоний. Биринчи муаллим. Тошкент, 1915. 37-бет

ma'lum bir darajada unga ta'sir qiladi, uni o'zgartiradi, lekin shu bilan birga muhit ham insonga ta'sir ko'rsatadi, unga o'z talablarini qo'yadi.

Muhitning insonga bo'lgan munosabati, uning o'zini tutishi qanchalik muhitning ishonchiga to'g'ri kelishi bilan aniqlanadi. Insonning o'zini tutishi ko'p holda jamiyatda u qanday o'rinni egallashi bilan belgilanadi.

Inson jamiyatda bir vaqtda bir qancha o'rinlarni egallashi mumkin. Masalan, ayol kishi o'qituvchi, rafika, ona, qiz bo'lishi mumkin. Har bir tutgan o'rin insonga muayyan bir talablarni qo'yadi va shu bilan birga unga qandaydir huquqlarni beradi. Jamiyatda insonning o'zini tutishi muayyan bir huquq va majburiyatlar bilan tavsiflanadi, sotsiologiyada bu ijtimoiy maqom deb ataladi.

Maqomlarning ba'zi birlari insonga tug'ilishi bilan beriladi. Inson maqomi jinsi, millati, tug'ilgan joyi, ism-sharifi va boshqa omillar bilan bog'liq bo'ladi. Bunday maqomlar tug'ma yoki o'zlashtirilgan deb ataladi. Boshqalari esa insonning o'zi mustaqil ravishda jamiyatda shaxsiy harakatlariga ko'ra erishgani bilan aniqlanadi. Masalan, pedagog, vrach, muhandis maqomini inson kerakli kasbiy ta'lim yurtida o'qigani va diplom olgani uchun oladi. Bu holda erishilgan yoki olingan maqom haqida gap yuritiladi.

Maqom insonning jamiyatda o'zini tutishini aniqlaydi. Ma'lum bir vaziyatlarda shaxs o'zini istaganicha emas, balki o'z maqomiga ko'ra tutadi. Atrofidagi insonlar undan bu vaziyatlarda muayyan intizomni kutadi, ya'ni inson muayyan bir rolni o'ynashga majbur. Shuning uchun, inson maqomidan kelib chiqqan kutilayotgan intizom ijtimoiy rol deb ataladi.

Inson hayoti davomida nafaqat jamiyat bilan kutilayotgan maqomlar, balki ijtimoiy me'yor va qadriyatlarga to'g'ri kelmaydigan maqomlar ham mavjud. SHuning uchun rivojlanish jarayonida bola pozitiv ijtimoiy yoki negativ rolni ham o'zlashtirishi mumkin.

Pozitiv rolli: oila a'zosi (ota va ona, buva va buvi, o'g'il yoki qiz, aka va singil, nevara va b.), jamoa a'zosi (o'quvchi, o'rtoq, do'st, etakchi va b.), iste'molchi (insonga ovqat, kiyim, oyoq kiyim va b.), fuqaro (Vatanni sevish, u

bilan faxrlanish, vatanparvar bo'lish), mutaxassis (o'qituvchi, vrach, iqtisodchi, muhandis va b.).

Bola bilan ma'lum rolda o'zini tutish mexanizmi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli kirishib ketishni ta'minlaydi, har bir u uchun yangi bo'lgan vaziyatga moslashib ketish imkoniyatini beradi.

Bu individni ijtimoiy muhit shart-sharoitiga moslashib ketishi jarayoni ijtimoiy moslashuv deb ataladi.

Ijtimoiylashuv jarayonida insonning "hammadek" bo'lish ob'ektiv ehtiyoji namoyon bo'ladi. Biroq shu bilan parallel ravishda bolada boshqa ehtiyoj - o'zini o'z individualligini ko'rsatish ehtiyoji shakllanadi. Bola uni ifodalash usul va vositalarini qidira boshlaydi, qaysidir ma'noda uni namoyon qiladi, natijada uning individuallashuvi sodir bo'ladi. Bolaning individuallashuvi - u yoki bu ijtimoiy ahamiyatga ega shaxs xislat va xususiyatlari aynan shu insonga mansub shaklda namoyon etadi. Ijtimoiy o'zini tutish esa boshqa insonlar intizomiga tashqi tomondan o'xshashiga qaramay betakror, individuallik qirralarni egallaydi.

Shunday qilib, bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki yo'nalish bo'yicha sodir bo'ladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajribani egallash) va individuallashuv (mustaqil bo'lish).

Agar bolani mikromuhitga kiritishda ijtimoiylashuv va individuallashuv jarayonlari orasida muvozanat belgilansa, ya'ni bola, bir tomondan, mazkur jamiyatda o'zlashtirilgan me'yor va qoidalarni o'zlashtirsa, boshqa tomondan unga o'ziga tegishli individualligini qo'shsa, muhitda bolaning integratsiyasi sodir bo'ladi.

Agar bolaning guruhga moslashish jarayoni sodir bo'lmasa, unda o'ziga ishonmaslik, tortinchoqlik, tashabbussizlik sodir bo'lishi, bu esa shaxsni jiddiy deformatsiyaga olib kelishi mumkin.

Agar bola moslashuv fazasidan o'ta olsa va atrofdagilarga o'z individual farqlarini ko'rsatishni boshlasa, atrofdagilar esa uning individualizmini jamiyat me'yorlariga to'g'ri kelmaydi deb hisoblasa, unda bolada negativlik, gumonsirash, agressiya, o'ziga yuqori baho berish holatlari ko'rinadi.

2.3. Ta'lim-tarbiyaning ta'siri.

Jamiyatning bolalar ongiga ta'sir o'tkazishi asosan ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. Inson kamolotida ta'lim-tarbiya etakchi rol o'ynaydi. Chunki:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonida kishi organizmining o'sishi va muhitning stixiyali ta'siri bera olmaydigan narsalarni o'rganib oladi. Masalan, tilni odamlarning ta'sirida o'rganib olish mumkin. Lekin o'qish, yozishni maxsus ta'lim orqali o'rganadi.

2. Ta'lim-tarbiya yordamida hatto kishining ba'zi tug'ma kamchiliklari ham kerakli tomonga o'zgartirish mumkin. (ko'r, kar, soqov).

3. Ta'lim-tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz beradigan kamchiliklarini ham tugatish mumkin. (Bolalarning karta o'ynashi, so'kishi, chekishi).

4. Ta'lim-tarbiya natijasida bolada bilimlar, ko'nikma va masalalar hosil bo'libgina qolmay, balki dunyo qarash ham shakllanadi, kamolotga etib boradi. Bilmlarning egallanishi uning jismoniy va ma'naviy jihatdan o'sishiga yordam beradi. Masalan, Sarimsoqov 29 yoshida akademik, N. I. Lobachevskiy 14 yoshida Qozon universitetiga o'qishga kirgan, 23 yoshida professor darajasiga erishgan. O'zbek olimlaridan SHavkat Alimov, SHavkat Ayupov, va Rahim Hayitovlar ham shu yoshlarda professorlik nasib etgan.

Jamiyatning bolalar ongiga ta'sir o'tkazishi asosan ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. U dastlab oila sharoitida va maktabgacha tarbiya muassasalarida, keyinchalik maktab, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy maktabda ta'lim-tarbiya oladi. Shu sababli inson kamolotida ta'lim va tarbiyaning etakchilik qilishiga imkon berish darkor. Ta'lim va tarbiya jarayonida kishi organizmining o'sishi va muhitning stixiyali ta'siri Bera olmaydigan narsalarini o'rganib oladi. Masalan, bola o'z ona tilini atrofni o'rab turgan muhitning ta'sirida o'rganib olishi mumkin. Lekin o'qish va yozishni maxsus ta'lim -tarbiya yo'li bilangina o'rganadi, mehnat va kasb egallash ko'nikma va malakalari faqat ta'lim jarayonida egallanadi.

Ta'lim-tarbiya yordamida kishining ba'zi tug'ma kamchiliklarni ham kerakli tomonga o'zgartirish, shuningdek, muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz bergan kamchiliklarni ham tugatish mumkin (bolalarning karta o'ynashi, qo'pollik, so'kish, papiros chekishlari va h.k.).

Ta'lim jarayonida bolada bilimlar, ko'nikma va malakalar hosil bo'libgina qolmay, balki ilmiy dunyoqarash ham shakllanadi. Xullas, bizning asosiy va eng muhim vazifamiz, bolalarning qobiliyat va iste'dodlarini o'z vaqtida payqab olish va ularning kamol topishlari uchun qulay sharoit, ta'lim-tarbiya berishdir.

Tarbiya va rivojlanishning o'zaro bir-biriga ta'siri va munosabatlari mavjud, chunki qaerda tarbiya jarayoni muammolari to'g'ri hal etilsa, u shaxs kamolotiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya shaxsning rivojlanishini ta'minlashi uchun boladagi rivojlanishning mohiyatini tushunish, bilish faoliyatining o'zgarish sabablarini aniqlash zarur. Tarbiya haqiqatdan rivojlantiruvchi omil bo'lmog'i uchun tarbiyalanuvchi jamiyatning tarbiya oldiga qo'ygan talablarini, shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi zarur. Pedagogika fani shaxs rivojlanishida tarbiyaning etakchi rolini e'tirof etish bilan birga ularning o'zaro bir-biriga ta'sirini tan oladi.

Shaxsning rivojlanib kamol topishi, hayotning hamma bosqichlarida bir xil bo'lmay, balki yosh xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har xil bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini bilish va hisobga olish juda muhim. Ma'lumki, bir xil yoshdagi bolalarning, o'quvchi-talabalarning har birining o'ziga xos xususiyatlari, psixik jarayonlari mavjud. Bu o'ziga xoslik rivojlanish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Bolalarni o'qitish va tarbiyalashning muvaffaqiyati o'qituvchining har xil yoshdagi bolalar o'rtasidagi tafovutlarni qay darajada hisobga olishiga bog'liqdir. Shunday ekan, tarbiyachi, pedagog maktabgacha yoshdagi va maktab hamda o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchi talabalarning yosh davrlari bilan xususiyatlarini hisobga olmoqlari lozim.

Demak, bizning asosiy va eng muhim vazifamiz, bolalarning qobiliyat va iste'dodlarini o'z vaqtida payqab olish va ularning kamol topishlari uchun qulay sharoit, ta'lim-tarbiya berishdir.

Barkamol insonni tarbiyalashning asosiy tarkibiy qismlari.

O'zbekiston mustaqil davlatga aylangan bir sharoitda ma'naviy va axloqiy tarbiya qator omillar ta'siri ostida amalga oshiriladi. Bu eng avvalo shaxsni umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish maqsadida ish olib borishda ko'rinadi. Axloqiy sifat shaxsning barcha muhim xususiyatlarini yaxlit xolga keltiradi.

O'zbek xalqining moddiy va maonaviy darajasining ko'tarilishi yangi axloqning kelajakdagi rivojlanishi va mustahkamlanishining sosial bazasini kengaytiradi, shaxs ehtiyojlarini yangi darajasi va undan oqilona foydalanishni shakllantiradi.

Shaxsning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish; vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi va bayrog'i hamda madhiyasiga muhabbat, insonpavarlik, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridir.

Axloqiy tarbiyaning ba'zi asosiy sifatlari mazmunini tavsiflaymiz.

Vatanparvarlik. Vatanparvarlik Vatanga muhabbat uning himoyasiga tayyor turishlik, vatanning gullab yashnashi uchun mehnat qilishdir.

Fuqarolik burchi inson hayotiy faoliyatining barcha sohalaridagi ijtimoiy faoligini kuchaytiradi. Vatan manfaatlarini himoya qilishda, mehnatda, ijtimoiy faoliyatda o'zining fuqarolik majburiyatlarini sidqidildan bajarishga rag'batlantiradi.

Talabalarda baynalmilal tuyg'u va baynalmilalchi sifatlarini tarbiyalash jarayonida ularning O'zbekiston xalqlarining milliy birligi, umumdavlat manfaatlarining ayrim viloyat yoki millat manfaatlaridan ustunligini aloxida ahamiyatga ega.

Mehnatga mahsuliyatli munosabat

Bu axloqning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mehnatga ma'suliyatli munosabatning asosiy belgilari: beg'arazlik, mehnat majburiyatlariga ongli, mahsuliyatli yondoshish, intizomlilik, ijodiy izlanish, tashabbus, faoliyat natijalarini oldindan ko'ra bilish, mustaqil qaror qabul qilish, jamoatchilik hamkorligi, o'rtoqlarga yordam ko'rsatishga tayyorlik, mehnat kishisining qadrigimmati va sharafigi tuyg'usini rivojlantirish.

Onqli intizom.

Ongli intizom axloqning tarkibiy qismi hisoblanadi. Intizom deganda burchni bajarish – shaxsiy va ijtimoiy, davlat, shaxsiy va jamoatchilik majburiyatlarini kam-ko'stsiz bajarish hamda ijtimoiy hayotda kishilarga, mehnatga va jamoat mulkiga jamiyat qabul qilgan xatti-harakat meyorlarida amal qilish tushiniladi.

Talabalarda intizomlilikni tarbiyalash ularning eotiqodini shakllantirish, umumiy madaniyatini o'stirish, muntazam mehnatga va vazifasini qat'iy bajarishga o'rgatish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni avvalo talabalarning amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida, o'zaro taosir ko'rsatish usullari, xulq-atvor meyorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Axloqiy ideali hayotiy rejalar va xulq-atvor namunalarida, hayotiy nuqtai nazarida namoyon bo'ladi, talabalar tasavvurida barkamol shaxs va uning jamiyat bilan munosabatlarida amalga oshiriladi. Bu tasavvur umumlashgan, saylangan, axloqiy faoliyatning dasturi ko'rinishlarida namoyon bo'lishi mumkin.

Axloqiy ideal talabalarning hayotiy rejalarini shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ideal va hayotiy rejalarining o'zaro bir-biriga taosiri talabalarning axloqiy tuyg'u va irodasi, o'z-o'zini anglashning rivojlanish darajasi bilan bog'liqdir. Axloqiy ideallar talabalarning jamiyatning ijtimoiy qadriyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini aks ettirish barobarida bevosita ularning kasbiy intilishlari bilan bog'liqdir.

Axloqiy tarbiya yoshi va o'quvchining to'g'ri yo'nalishi olishi uchun hal qiluvchi taosir ko'rsatadigan muhitni (oilaviy va do'stlik muhiti) ham hisobga olganda shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi: inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur beradi.

Axloqiy tarbiya tizimida axloqiy odatlar alohida o'rinni egallaydi. Chuqur o'zlashtirilgan axloqiy me'yorlar bilan belgilanuvchi hatti-harakat odatning ma'naviy sababiyatining barqaror ko'rsatkichidir.

Axloqiy tarbiyaning muhim vazifasi hatti-harakatlarni odatga aylanishidir. Axloqiy odatlarni tarbiyalashga qo'yiladigan pedagogik talab talabaning fe'l-atvori va ongining birligi va o'zaro aloqasiga asoslanadi.

XULOSA

Pedagogika shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar irsiyat (biologik omil), muxit (ijtimoiy, tabiiy, psixologik, ma'naviy...omillar), ta'lim tarbiya to'g'risidagi xulosalarni ancha ilgari ishlab chiqqan. Jamiyat taraqqiyotining turli davrida pedagogik ularning insonning shakllanishdagi ahamiyati va nisbati turlicha mafkuraviy-siyosiy ta'sirida izohlab kelgan.

Tug'ma qobiliyatlarning irsiy berilishi, masalan, tabiat ilmida va unga muvofiq pedagogikada xam alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan: ichkilikboslikka berilgan ayrim oilalardagi bolalarda ba'zi bir irsiy kuchib utadigan ruxiy kasalliklariga chalinish xollari uchraydi. Soglom kishilar farzandlarida aqliy faoliyat darajasi va sifasi yuqori bulishi kuzatiladi.

Shaxsning xamma ruxiy fazilatlari uning atrof muxit bilan muloqati natijasida insonni mexnat qilishdek xayotiy faoliyati natijasida qulga kiritiladi. Insonga tug'ma ravishda xatti-xarakatlarning xech qanaka ijtimoiy, noijtimoiy dasturlari berilgan emas. Har bir odam uchun shaxs sifatidagi fazilatlarning shakllanish jarayoni amalda noldan boshlanadi.

Ijtimoiy muhit ko'p jihatdan sotsial shart-sharoitlarga bevosita bog'liq. Insonning ijtimoiy qiyofasi uning ijtimoiy va davlat tuzumiga mansubligi, ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarining mahsus, u yoki bu davlatning fuqaroligi, shaxsning sinfiy o'rnini belgilaydigan mazkur jamiyatda, mamlakatda o'rnatilgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning maxsuli hisoblanadi. Inson rivojlanishining shaxar va qishloqlarda xayot sharoitlarining o'zgarishi, mamlakat xududida aholining kuchishi, tug'ilishning o'sishi, umrning uzayishi yoki kamayishi, nikoxdan o'tish yoshining o'zgarishi, mexnat taqsimoti, bozor iktisodiyoti sharoitida, ya'ni sinflar tadbirkor, ishbilarmon, savdogar, bankir, menejmentlarning paydo bo'lishi ko'p jihatlardan bogliqdir.

Muhitning ta'siri ko'pchilik hollarda stixiyalik ekanligini xisobga olinsa, ta'lim, tarbiya aniq maqsadli ta'sir etish bulib, rejali amalga oshiriladi va muhitdagi voqealikni to'g'ri va ijobiy ta'sirini ham vujudga keltiradi. Chunki

ta'lim, tarbiyada muhit beraolmaydigan narsalar o'rganiladi, bilim, ma'lumot egallanishda, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar egallanadi;

- ta'lim-tarbiya tufayli to'g'ra kamchiliklar ham o'zgartirib yoki to'g'ra qobiliyat iqtidor rivojlantirishi mumkin bo'lib, shaxsni kamolga yetkaziladi;
- tarbiya ta'sirida muhitning salbiy ta'sirida bartaraf etishi va yuqotilishi mumkin;
- ta'lim va tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni kuzlaydi. Oila shaxsning shakllanishida jamiyatning asosiy bugini sifatida katta rol uynaydi. Shaxsning ijobiy xislatlari asosan oilada tarkib topadi, shakllana boshlaydi. Maktabgacha tarbiya muassasalarda yanada yangi jamoaviy xislatlar bilan boyitiladi. Maktab, litsey, gimnaziyalarda yetuklik kulamida bilim, iqtidor, ko'nikmalar shakllanishi bilan birga insoniy ijobiy xislatlar yanada sayqal topadi. Maktabdan tashqari madaniy-ma'rifiy muassasalar va radio, televidenie ommaviy axborot vositalar ta'sirida shaxsiy xislatlar jamiyatga, atrof-muhitga muvofiqlantiriladi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish jarayonida insoniy ongning faol tabiati ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Inson o'z tanasini o'zining ongi irodasi ob'ekti qilib, ataylab o'ziga muayyan xarakatlar va xarakat omillaridasturini belgilab, o'z organizmining ishini takomillashtiradi, xarakat qobiliyatlarini va umumiy yashovchanligini oshiradi. Ana shunday xarakat vositasida tashqi tabiatga ta'sir ko'rsatadi va uni o'zgartirar ekan, ayni vaqtda o'z tabiatini ham o'zgartiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi qonuni. //Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent; —Sharq• , 1997, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining —Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida• gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent; —Sharq, 1997, 31-61 betlar.
3. Asqarov M, Xaytboyev M, Nishonov M. Pedagogika. Dars. T.:Talqin, 2008.-289 bet
4. Mavlonova R. Pedagogika. -T.: 2002.- 80 str.
5. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.
6. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T., O'zMU
7. Ibragimov X. I va boshqalar. Pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007 y.
8. Raximov B. H va boshqalar. Pedagogika. O'quv uslubiy qo'llan. GulDU. 2008
9. Xo'jayev N. va boshqalar. Pedagogika asoslari. – T.: 2003. -120 bet
10. <http://www.edustorng.ru/main/book/pedagogtechno.htm>
11. <http://dl.nw.ru/theories/technologies>
12. [www. ziyonet . uz.](http://www.ziyonet.uz)
13. [http . llel .tfi . uz.](http://lilel.tfi.uz)
14. [www . avlony –library. connect uz.](http://www.avlony-library.connect.uz)

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

Veterinariya, zootexniya va qorako'lchilik fakulteti Kasb ta'limi

(Zootexniya) yo'nalishi 211-guruh talabasi

Aravotova Gulshaning ning

«Shaxs shakllanishida muhitning o'rn»
mavzusidagi kurs ishiga

TAQRIZ

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, shaxs ijtimoiy hayotning muhimi ekan, u albatta bolami o'rab olgan muhit ta'limida rivojlanadi. Shaxsning hayoti faoliyati do'sonida muhit unga yo'q ijobiy, yo'q salbiy ta'sir ko'rsatishi, rivojlanish imkoniyatlarini ko'rsatib chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Talaba Aravotova Gulshan tomonidan yozilgan kurs ishi muvazir mos holda yozilgan bo'lib, unda 2 bo'lim, 5 paragrafdan, xulosa va adabiyotlar ro'yxati mavjud. Umuman olganda kurs ishi talab darajasida yozilgan. Shuning uchun uni ijobiy baholab, ximoyaga qo'yish etamon



Kurs ishi
Komissiya raisi:

86

ballga baholandi.

Z. Boboqulov

